

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI VA UNI BOSHLANG`ICH TA`LIMDA O'RGANISHNING METODOLOGIK ASOSI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10275294>

To`raxo`jayeva A. X

Boshlang`ich ta`lim kafedrasi dotsenti

<https://orcid.org/0009-0001-9806-7400>,

Obbosova Mukhtasarkhon Bakirali qizi

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti 2- kurs magistranti,

mukhtasarkhonobbosova31@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-9947-1909>

+998 91 157 0997

Annotatsiya

Maqolada adabiyotning ajralmas va muhim qismlaridan bo`lgan o`zbek bolalar adabiyotining rivojlanish tarixi hamda ahamiyati haqida so`z boradi. Bu borada o`zbek tilshunoslarining qarashlari aks etgan. Bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalari ham atroflicha tushuntirilgan.

Tayanch so'zlar

O`zbek bolalar adabiyoti, bolalar adabiyoti fani, pandnoma, mavyizatnama, nasihatnoma, axloq kitoblari.

Abstract: The article talks about the history and importance of Uzbek children's literature, which is an integral and important part of literature. In this regard, the views of Uzbek linguists are reflected. The aims and objectives of the science of children's literature are also explained in detail.

Key words: Uzbek children's literature, the science of children's literature, pandnoma, mavyizatnama, advice book, moral books.

Аннотация: В статье говорится об истории и значении узбекской детской литературы, которая является неотъемлемой и важной частью литературы. В связи с этим отражены взгляды узбекских языковедов. Также подробно разъясняются цели и задачи науки о детской литературе.

Ключевые слова: узбекская детская литература, наука о детской литературе, панднома, мавыизатнома, книга советов, нравоучительные книги.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy o'zgarishlar ta'lif tizimi oldiga ham yangicha talab va vazifalar qo'ydi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dagi yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash vazifasi, ayniqsa, ona tili va adabiyot o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev "Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lif tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lif berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rinnegallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda", deya ta'kidlashlari ham bejiz emas. Biz ko'p hollarda o'quvchini daryo o'rtasida turib, suv izlayotgan shaxsga o'xshatamiz [1; 14]

Mamlakatimizda yoshlar ta'lif va tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunida ta'lif O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi. Yurtimizda xalqimizning ko'p asrlik ezgu orzulari ro'yobga chiqayotgan bugungi kunda madaniy va ma'rifiy sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biri – "Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak" [2; 26]

Binobarin, "Mustaqil fikr yuritadigan, to'g'ri va halol, jasur avlodni tarbiyalash davrimizning dolzarb muammolaridandir. Ha, bunday yoshlar kamolotida, albatta, badiiy adabiyot, xususan, bolalar adabiyoti katta rol o'ynaydi. Chunki kichkintoylar alla, qo'shiq, maqol, masal, topishmoq, tez aytish, ertak eshitib, o'qib kamol topadilar. Bu janrlar vositasida ularning qalblari nurga to'ladi, hayotga intilish, qiziqish hislari jo'sh uradi. Ma'naviy tomondan ham yuksala boradilar. Xususan, kitobxonlikka mehr uyg'otish, bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, bolalarga atalmish vaqtli matbuot, bolalar kitobi, kitobxonlikka mehr uyg'otish orqali o'tkazish, ta'lif – tarbiya berishda alohida o'rinni egallaydi. Adabiyot fanining asosiy vazifasi o'quvchilarga faqat bilim berishgina emas, balki tarbiyalashdan ham iborat.

Bolalar o'qishi uchun mo'ljalangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. O'zbek bolalar adabiyoti ham Sharq yozma adabiyotida

“pandnoma”, “ma’vizatnoma”, “nasihatnoma”, axloq kitoblari” singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangan bo’lsa-da, uning shakllanishi ma’rifatparvarlik - maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog’liqligi e’tirof qilinadi [3; 277]

Maye, Kaykovusning «Mav’izatnomai Kaykovus» («Qobusnama»), Shayx Savdiyning «Guliston» va «Bo’ston», Jomiyning «Bahoriston» asarlari bolalar adabiyotining dastlabki namunasidandir. Bular tarjima vositasida o’zbek bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», “Mantiq ut-tayr” va “Mahbub ul-qulub” [4; 172] asarlari, Xojaning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”, [5; 67] Gulxaniyning “Zarbulmasal” [6;112] asarlari esa o’zbek bolalar adabiyotining mumtoz namunalari bo’lib, pand-nasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

XX asr boshlaridagi ma’rifatparvar pedagog va adiblar Saidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo’ja Behbudiy, Sadreddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Elbek va boshqa o’nlab ziyorilarning “usuli jadid” maktablarida tahsil oluvchi o’zbek o’quvchilari uchun yaratgan ellikdan ortiq alifbo va o’qish kitoblari bu jarayonni yuzaga chiqishiga asos bo’ldi. Bu darsliklar avvalo, bolalarbop maxsus asarlar ijod etish an’anasini boshlab bergenligi bilan diqqatga sazovor. Negaki, xalq bolalarini ma’rifatli qilishni ko’zlab ochilgan yangi usuldagagi maktablar uchun o’zlari tuzgan “Kitobat ut-atfol” (Behbudiy), [7;45] “Birinchi muallim” [8;268] “Ikkinchi muallim” [9;282], “Turkiy guliston yoxud axloq” [10;97] , “Maktab gulistoni” (Avloniy) [11;47], “Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi”, “O’qish kitobi” [12;253], (Hamza), “Tahsib us-sibyon” (“Bolalar tarbiyasi”) [13;43] “Qiz bola yoki Xolida” (S.Ayniy) [14;89], “O’qu”(Fitrat) singari darsliklarda hayotiy voqelikning badiiy ifodasida bolalarning yosh xususiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu haqda adabiyotshunos olim R.Barakayev kengqamrovli ma’lumot beradi. [16;15]

O’zbek bolalar adabiyoti ibtidosi jadidlarning o’zlari ochgan maktablar uchun yaratgan Alifbe, O’qish kitoblariga borib taqaladi. O’zbek bolalar adabiyotining dastlabki namunasi Saidrasul Azizov ijodida uchraydi. Bolalar adabiyotining ilk namunasi va dastlabki pedagogik darslik “Ustozi avval” 7 yoshli bolaga atab tuzilgan she’rlar, hikoyalar va matnlardan iborat. Ichida keltirilgan so’zlar va ularning miqdori, syujeti bolalar uchun xoslangan shaklda bitilgan.

Adabiyotshunos R. Barakayev o’zbek adabiyotidagi bolalar uchun maxsus yaratilgan ilk alifbo Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval” (1902) kitobi ekanini ta’kidlaydi. Shundan keyin esa Oktabrgacha (1917-yil, oktabr – O.S., B.J.) islohotchi

pedagog va adiblarning ellikka yaqin nomdagi alifbo va o'qish kitoblari nashr qilinganini qayd etadi. Bunda Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval" (1907), "Adib ussoniy" (1909), Serikboy Oqayevning "Xrestomatiya, ya'ni terma kitob" (1911), Mulla Rustambek ibn Yusufbekning "Ta'limi avval" (1910), Mulla G'ulomiddin Akbariy (Kabirzoda)ning "Ta'limi soniy" (1912), Abduvahob ibn Abdullo Ho'qandiyning "Tahsili alifbo" (1912), Muhammadjon Rasuliyning "Bolalar bog'chasi" (1915), Muhammadamin Faxriddinovning "Rahbari soniy" (1916) singari alifbo va o'qish kitoblari, nihoyat, Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy darsliklarini birma-bir sanab o'tadi. Ularning umumiyl xususiyatlari haqida esa: "Yuqorida nomlari zikr etilgan alifbo va o'qish kitoblari deyarli to'lig'icha badiiy matnlardan tashkil topgani sababli ularni istisnosiz, badiiy adabiyot namunalari sifatida ham tadqiq etish joiz", - degan mulohazani ilgari suradi. Hamchunin, bu tipdagi kitoblarning paydo bo'lishini o'zbek bolalar adabiyotidagi haqiqiy tug'ilish, deb hisoblaydi olim (ta'kid bizniki - O.S., R.B., B.J.) [15;27-29]

1919-yildan e'tiboran yosh kitobxonlarni bir maslakka uyushtirish, tarbiyalashda matbuotning roli kata bo'lgan. Garchi 20-yillardagi adabiy-badiiy jurnallarning faoliyati birmuncha qisqa bo'lgan esa-da, ularning bolalar adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi diqqatga sazovor. 20-yillar o'zbek bolalar adabiyoti matbuot sahifalarida tug'ilganligi, ular ta'lim-tarbiyani jonlantirishda samarali ta'sir ko'rsata olganligini ta'kidlovchi e'tiroflar talaygina [16;614-625]

Yozma adabiyotning vujudga kelishi barobarida bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan asarlar ham paydo bo'ldi. Lekin bu maxsus bolalar adabiyoti vujudga keldi degani emas. Negaki, bunday asarlarning aksariyati didaktik xarakterda bo'lib, ularda kattalarning hayot va tarbiya haqidagi mulohazalari berilgan. Bu xildagi asarlarni bolalar adabiyoti tarzida emas, bolalar kitobxonligi tarzida qarashni lozim deb bilamiz. Chunki bolalar adabiyoti tushunchasi bilan bolalar kitobxonligi tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Masalan: S.Ayniyning «Esdaliklar» memuar asari, Oybekning "Bolalik", A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarlari bolalar adabiyotining namunalarini sanaladi. Aslida bu asarlarning qahramonlari bolalar (Sadreddin, Mus, Abdulla) bo'lsalar-da, vogelik kattalar didi bilan idrok qilingan. Demak, bolalik muammolari kattalargagina xos badiiy tafakkur sintezidan o'tkazilib o'sha davrga munosabat bildirilgan. Bunday asarlar bolalar yosh xususiyatiga dunyoqarashi bolalar tili gapishtirish manerasiga xos belgilarga rioya qilinmagan. Keyinchalik bolalar uchun alohida adabiyot yaratish ehtiyoji paydo bo'ldi. [17]

Manbalarda shu yili yana bir jurnal chiqqanligi qayd etiladi: "1919 yil may oylarida, – deb ma'lumot beradi Q. Oripov, – "Yosh sharq" nomli jurnal bosmadan chiqadi. Bu jurnalga Finkelshteyn muharrirlik qiladi, jurnalning redkollegiyasida mahalliy yoshlardan Rahim Inomov, Botu va boshqalar bor edi. Biroq bu yoshlar jurnali birinchi sonidan so'ng gazetaga aylantirildi". Ziyo Said, Botu, Akmal Ikromov, A'zam Ayub, Usmonxon, Julqunboy, Mirmulla, Cho'lon, Elbeklar gazeta bilan hamkorlik qilib, uning 5-dan 10-sonigacha chiqarishga muvaffaq bo'ladilar [18;3]

Bolalar she'riyati, nasri o'tgan asrning ikkinchi yarmidan ancha yuksaldi. Bolalar dramaturgiyasi va publitsistikasiga asos solindi. Bolalar kinosi va teatri rivojlandi. Muhimi, bu istloh ruscha "detskaya literatura" so'zining aynan tarjimasi tarzida emas, balki real voqelikka aylangan, o'zbek bolalariga mo'ljallanib yaratila boshlangan, ularga ixtisoslashgan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Buning tarixiy-tadrijiy tamoyillari, ilmiy-nazariy umumlashmasi esa "Bolalar adabiyoti" deb nomlangan mustaqil fan tarixida o'z ifodasini topa bordi [19;332]

Bolalar adabiyoti deganda yozuvchilar tomonidan ularga mo'ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz. Shuningdek, katta yoshdagilarga atalgan, biroq bolalar ma'naviyatini boyitadigan, ularga ma'rifiy - estetik zavq berishi mumkin bo'lgan asarlar ham bolalar kitobxonligini tashkil etadi. Ijtimoiy ong shakllari, mafkuraviy ishning barcha sohalari kabi, bolalar adabiyoti ham voqelik bilan hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar hamda insoniyat turmushi bilan bog'liq bo'lib, ularni o'ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi. Bolalar adabiyotida aks ettirilgan voqeliklar hayotiy, haqqoniy tasvirlanish hamda ularning ruhiyatiga, ongiga mos, tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak [20; 272]

Shunga ko'ra, bolalarga atalgan badiiy asarlar ularning xarakter xususiyatlarini to'la namoyon qilishi bilan bir qatorda pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada bo'lishi, demakki, muayyan ma'rifiy - estetik g'oyani ilgari surish lozim. Bolalar adabiyotining yana bir muhim xususiyati uning pedagogika bilan mahkam bog'langanligidadir. Bolalar adabiyoti talablari bilan birga pedagogika talablariga ham alohida e'tibor berilishi lozim. Ana shu talablar asosida yaratilgan g'oyaviy - badiiy yuksak asarlar bolalar uchun eng qimmatli kitoblar hisoblanadi.

Zero, pedagogika bilan bolalar adabiyotining maqsad va vazifalari mushtarak: yosh avlodga chinakam aqliy - axloqiy estetik va jismoniy tarbiya berishdir. Bolalar yozuvchilari bolalarga mos, ularni qiziqtiradigan va ulkan ishlarga otlantiradigan asarlar yozib, yorqin, kuchli badiiy obrazlar yaratib, yosh avlodning ongi, xarakteri

va irodasini o'stirib chiniqtirishda va har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan, mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashda xalqqa, davlatimizga katta yordam berishlari kerak.

Barcha yozuvchilarning eng yaxshi asarlari bolalarni atrofdagi hodisalarga to'g'ri baho berishga o'rgatadi, kishilarimizning yuksak ma'naviy sifatlarini ko'rsatadi, bolalarni ona Vatanga, mehnatga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Kitob bolalarga hayotni o'rgatuvchi haqiqiy muallim bo'lishi uchun ularning kitobxonligini to'g'ri tashkil qilish kerak. Bolalarni kitob tanlashga, muntazam ravishda o'qish o'rgatish lozim. O'qilgan kitoblar yuzasidan o'qituvchining rahbarligida turli mulohazalar, muhokamalar, kitobxonlar konferensiyasi o'tkazib turish katta foyda keltiradi.

O'qituvchi va tarbiyachilarning bolalar adabiyotidan foydalana bilishlari, mактабда va bog'chada ta'lim - tarbiya ishlarining sifat va samarasini yanada yuqori darajaga ko'tarishi, o'quvchilarning badiiy kitoblarga bo'lgan muhabbatini oshirish ishlarini yaxshilash vositalaridandir.

Ilg'or izlanuvchan o'qituvchi har bir dars uchun yangilik izlaydi, ish jarayonida yangi metod va usullarni qo'llaydi. Har bir mavzu ustida ishlar ekan, albatta qo'shimcha adabiyotlarni topadi, ishlab chiqadi. Adabiyot darsida matn ustida o'quvchilar bilan fikrlashar ekanmiz ularning nutqini o'stirishga alohida e'tibor bermog'imiz lozim. She'rlarni ifodali o'qish bilan birga,yod olishga topshiriq berib,har bir mavzuni o'quvchining shaxsiy hayoti bilan bog'lab, tushuntirib xulosalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – B.14.
- 2.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi – Toshkent: Sharq NMIU, 1999. – B. 26.
- 3.Jamilova B. Bolalar adabiyoti – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020. – B. 277.
- 4.Alisher Navoiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 172.
- 5.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – B. 67.
- 6.Gulxaniy. Zarbulmasal – Toshkent: Ma`naviyat, 2016.– B. 112.
- 7.Бехбудий. Китобат ут-атфол. – Тошкент: Ма`навият, 1916. – Б. 45.
- 8.Абдулла Авлоний. Биринчи муаллим. – Тошкент: Ма`навият, 2009. – Б. 268.

9. Абдулла Авлоний. Иккинчи муаллим. – Тошкент: Ма`навият, 2009. – Б. 282.
10. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлок. – Тошкент: Ма`навият, 1917. – Б. 97.
11. Абдулла Авлоний. Мактаб Гулистанни. – Тошкент: Ма`навият, 1915. – Б. 47.
12. Солижонов Йўлдош. Адабиёт хиёбони. – Фаргона: Ма`навият, 2020. – Б. 253.
13. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi/Toshkent: Cho'lpox, 2006. – B. 43.
14. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Sharq. 2005. – B. 89.
15. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. Toshkent: Fan, 2004.- B.27-29.
16. Oriporov Q. O'zbek sovet bolalar adabiyotining vujudga kelishida matbuotning roli.(20-yillar) / Xalqlar do'stligi-adabiyotlar do'stligi. – Toshkent: 1972. – B. 121-144; yana: Suyumov A. Bolalar jurnallari haqida // Soviet maktabi. - 1970. № 6. – Б. 32-37; yana: Qoriyev B. 30-yillar o'zbek sovet adabiy jurnallari / O'zbek sovet adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1971. – T.2. – B. 614-625.
17. <https://fayllar.org/2-mavzu-ilk-ozbek-bolalar-adabiyoti-va-uning-vujudga-kelishida.html>
18. Sharipova L. Bolalar yo'ldoshi. – Toshkent: Ma`naviyat, 1919. № 1. – B. 3
19. Jamilova M, O'zbek bolalar adabiyoti// Toshkent: Innovatsion - Ziyo. – 2020. B. 332.
20. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 2005. – B. 272.
21. Турахужаева А.Х., Усмонова О.С., & Абдурахмонова З.С. (2016). THE PROBLEM OF SOCIAL-POLITICAL LEXIS IN LINGUISTICS. Ученый XXI века, (4-1 (17)), 64-66.
22. Adibakhan, Torakhojaeva. "LEARNING SOCIO-POLITICAL TERMS ON THE BASIS OF THEIR FIELDS OF MEANINGS." Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development5 (2022): 13-15. 8.Khalilullaevna, Adiba Turahojaeva, and Abdusattorova Farangiz. "Semantic Changes in Information Communication Terms." Indonesian Journal of Public Policy Review18 (2022).
23. Adiba, Turakhojayevo, and Farangiz Abdusattorova. "In providing spelling knowledge to students using the case study method." ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH10.5 (2021): 192-196.
24. Torakhojaeva Adibakhan Khalilullaevna¹, Kalandarov Shukhrat Shokirjonovich², Jamoliddinov Mirhojjiddin Ghiyosiddinovich. Component

Analysis Of Socio-Political Lexemas In Uzbek Language. Journal of Positive School Psychology <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 11, 1338-1342

25.Torakhojaeva Adibaxan Khalilullayevna, Isakov Zakirjon Soliyevich, Yusupov Muxsinjon Mamadaliyevich, Nizamova Shakhnoza Ubaydullayevna, Akhmadjonova Makhfuzा Egamqulovna. SEMANTIC PROCESSES IN SOCIOPOLITICAL VOCABULARY. Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 17962-17969.

26.To'raxo'jaeva Adiba. THE HISTORICAL PROCESSES OF UZBEK ORTHOGRAPHY. International Engineering Journal For Research & Development. 10.17605/OSF.IO/WPH29 // 519-522